

Kombinatda manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiya holatlari, tendensiyalari va sabablari, korrupsiyaga qarshi ko‘rilgan choralar samaradorligi to‘g‘risida jamoatchilik fikrini o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan anonim so‘rovnoma Tahlili

“O‘zmetkombinat” AJ 2024-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora tadbiri Dasturi 4.4-bandini bajarilishini ta‘minlash maqsadida 2024-yil 12-noyabrdan 18-noyabrgacha Kombinat rasmiy telegram kanalida “Kombinatda xodimlarni ishga olish, lavozimdan lavozimga o‘tkazish jarayonini shaffofligini o‘rganish” maqsadida bo‘yicha 6 ta savoldan iborat anonim so‘rovnoma o‘tkazildi. O‘tkazilgan anonim so‘rovnomada o‘rtacha 64 nafar xodimlar qatnashdilar va uning natijalariga ko‘ra:

Kombinatda ishga qabul qilish hujjat (rezyume) topshirish jarayonlari shaffof yaratilganmi, savoliga 96,9 % ishtrokchi Xa;

Kombinatda lavozimdan lavozimga o‘tkazish va ishga qabul qilish, ya‘ni test va suhbatdan o‘tish jarayonlar shaffofmi, savoliga 92,2% ishtirokchi Xa;

Kombinat xodimlari tomonidan o‘z shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab boshqa lavozimga rotatsiya qilishni maqsad qilgan xodimlar haqida bilasizmi, savoliga 92,2 % ishtirokchi Yo‘q;

Kombinatda mahallichilik va o‘z yaqinini (do‘sti, qarindoshi, mahalladoshi) lavozimga tayinlash holatlariga duch kelganmisiz, savoliga 82,8 % ishtirokchi Yo‘q;

Kombinatda ishga qabul qilish, lavozimdan lavozimga o‘tkazish jarayonlarida manfaatlar to‘qnashuvi holatlariga duch kelsangiz, korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi holatlari bo‘yicha xabar berish aloqa kanallari mavjudligini bilasizmi, savoliga 87,5 %;

Ishga qabul qilish va lavozimdan lavozimga o‘tkazish jarayonlarini yanada shaffof va holis bo‘lishini ta‘minlash uchun takliflaringiz bormi, savoliga 87,5 % ishtrokchi Xa – javobini berishgan.

Anonim so‘rovnoma natijasi Komplayens - xizmati va Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti bilan birgalikda tahlil qilinib, kelgusida quyidagi yo‘nalishlardagi chora tadbirlarni 2024-yil 31-dekabrga qadar amalga oshirish belgilab olindi:

Korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi, sovg‘alar berish va qabul qilish mavzularida ishlab chiqilgan targ‘ibot materiallari videoroliklarni Kombinatning You Tube ijtimoiy tarmog‘idagi rasmiy kanaliga joylashtirish va kuzatuvchilar e‘tiboriga havola qilish;

Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi Qonuni maqsadi va vazifalari haqida audio va videoroliklar yaratish va Kombinatning ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy kanallarida kuzatuvchilar e‘tiboriga havola qilish;

Korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi mavzusida Kombinat xodimlari o‘rtasida Davra suhbatlari o‘tkazish va Kombinat rasmiy veb saytiga joylashtirish;

Korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi mavzusida Kombinat Yoshlar yetakchilari Kengashi bilan birgalikda davra suhbatlari va seminar tashkil etish;

Kombinat Boshqaruv Raisi Bosh direktorning “Metallurg Minbari” gazetasining 2024-yil 27-noyabr kunidagi 11-sonida nashr etilgan “Korrupsiyaning asosiy omili bu Manfaatlar to‘qnashuvidir” nomli murojaatlarini Kombinat xodimlari bilan keng muhokama qilish ishlarini tashkillashtirish.